

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim  
vazirligi**

**Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash  
muhandislari instituti**

**“Irrigatsiya va melioratsiya”kafedrasи**

**“ Sug‘orish tizimini namunaviy fermer xo‘jaligining  
sug‘oriladigan maydoni misolida loyihalash” mavzusidagi  
kurs loyihasini bajarishga oid**

**USLUBIY QO‘LLANMA**

Ushbu uslubiy qo‘llanma institut Ilmiy–uslubiy kengashining 28-noyabr 2022-yildagi 7-sonli majlisida ko‘rib chiqildi va chop etishga tavsiya etildi.

Ushbu uslubiy qo‘llanma “Irrigatsiya va melioratsiya” fanidan “Sug‘orish tizimini namunaviy fermer xo‘jaligining sug‘oriladigan maydoni misolida loyihalash” mavzusidagi kurs loyihasi ko‘zda tutilgan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari talabalari uchun mo‘ljallangan.

Tuzuvchilar: A. B.Mamataliyev, dotsent

Sh. H.Mardiyev, assistent

Taqrizchilar: U.Norkulov. Toshkent davlat agrar universiteti

“Dehqonchilik va melioratsiya” kafedrasи profesori, q/x.f.n.

D.G‘.Axmedjonov. dotsent, t.f.n.

© Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini  
mexanizatsiyalash muhandislari instituti, 2022 yil

## **Kirish**

Bugungi kunga kelib suv resurslaridan oqilona foydalanish mintaqada, jumladan respublikamizning barqaror iqtisodiy taraqqiyotida hal qiluvchi masalalardan biriga aylandi. Mazkur masala suv resurslarining tanqisligi, ularning sifatini yomonlashish jarayonlari hamda mintaqada shakllangan yangi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ekologik voqelik sharoitlarida muhimroq va dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda foydalaniladigan suvning 80% dan ortig‘i qo‘shni davlatlar, ya’ni Tojikiston va Qirg‘iziston hududidagi qorliklar va muzliklar hisobiga shakllanishi esa vaziyatni yanada murakkablashtirmoqda.

Respublikamizda sug‘oriladigan maydonlar 4,3 mln. getktarni tashkil etib, suv ta’mintonini ta’minalash maqsadida 180 ming km sug‘orish tarmoqlari, 800 dan ortiq yirik gidrotexnik inshootlar, 20 ming donaga yaqin gidropost va suv taqsimlash inshootlari, umumiyyajmi 19,2 mlrd. m<sup>3</sup> bo‘lgan 55 ta suv omborlari, yillik elektr energiyasining umumiyyarifi 8,2 mlrd. kVt soat bo‘lgan 1620 ta nasos stansiyalari, 4124 ta tik sug‘orish quduqlari xizmat qilmoqda.

Mana shu ulkan suv xo‘jaligi tizimini barqaror va xavfsiz ishlashini ta’minalash hamda yangi gidromeliorativ tizimlarni barpo qilish masalalarini o‘rganish Irrigatsiya va melioratsiya fanining asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Ushbu uslubiy qo‘llanma talabalarda namunaviy maydon misolida xo‘jalik hududini tashkil etish, unda sug‘orish tarmoqlarini hosil qilish, qishloq xo‘jalik ekinlari iste’moli uchun kerakli miqdordagi suv miqdorini aniqlash, sug‘orish tarmoqlaridagi hisobi suv sarf qiymatlarini aniqlash, sug‘orish tarmoqlarini va jihozlari turini tanlash, ularni gidravlik hisobini hamda bu boradagi ish hajmlar hisobini bajarish, sug‘orish tarmoqlariga xizmat qiladigan sug‘orish inshootlari, yo‘llar, himoya daraxtlari, suv o‘lchash moslamalarini qabul qilish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Buning uchun talaba rahbaridan topshiriq varaqasini va 12 (A3) formatdagi namunaviy maydon joylashtirilishi kerak bo‘lgan gorizontallar bilan ifodalangan yer relyefi (planshet)ni olib ushbu qo‘llanma yordamida topshiriqni mustaqil bajarishi shart.

## **1. Umumiy qism**

**Kirish.** Qishloq xo‘jaligiga jumladan, sug‘orish ishlariga oid O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, shuningdek ushbu ishdan qo‘yilgan maqsad vazifa va yechiladigan ishlar qisqacha ifodalananadi.

**Sug‘orish hududining tabiiy iqlimi shart-sharoitlari.** Bu bo‘limda namunaviy maydon joylashtiriladigan hududni relyefi, iqlimi, yer usti va yer osti suvlari tuproq-meliorativ shart-sharoitlari qisqacha bayon etiladi.

Jumladan: relyefda – relyefning qulay, noqulayligi, yer belgilarini qiymatlari, o‘rtacha nishablik qiymati va uning yo‘nalishi, suv ayirgich va suv yig‘gichlarni mavjudligi;

Iqlimda – issiq davrlarning davomiyligi, issiq haroratlar yig‘indisi, eng issiq va eng sovuq oylar va haroratlar, iqlimi ko‘rsatkichlar jadvali, iqlimni yil davomida o‘zgarishining tahlili, yog‘in miqdori va uni taqsimoti, shamolning o‘rtacha kuchi, yo‘nalishi va qaytarilishi;

Hudud joylashgan ma’lum bir metereologik stansiyasi bo‘yicha iqlimi tavsifnomasiz yer usti va yer osti suvlarida - yer usti suv manbalarining mavjudligi, ularni turi, boshqarilganligi namunaviy maydonga nisbatan joylashganligi, yer osti suvlarini hosil bo‘lishi, ularning chuqurligi, minerallashganligi;

Tuproq-meliorativ shart-sharoitlarda esa tuproqning mexanik tarkibi, unumdoorligi, hosil bo‘lishi, sho‘rlangan, sho‘rlanmaganligi, sizot suvlari bilan aloqadorligi qisqacha yoritiladi.

Tabiiy-iqlimi shart-sharoitlarni tahliliga ko‘ra xulosa qilinadi. Xulosada mazkur hududda texnik ekinlarni yetishtirish imkoniyati va buning uchun amalga oshiriladigan ishlar turkumi keltiriladi.

## **2. Loyihaviy yer fondi hisobi**

Bizga ma’lumki, sug‘orish maydonlari yalpi, brutto, netto maydonlar bilan nomlanadi. Talabaga 200-350 ga ko‘lamidagi brutto maydoniga ega bo‘lgan namunaviy maydonni tashkil etish topshirig‘i beriladi. Brutto ( $W_{br}$ ) maydon tarkibiga

qishloq xo‘jalik ekinlari bilan band maydon ( $W_{net}$ ) va sug‘orish tarmoqlari, ular yonidagi yo‘l va himoya daraxtlari, tashlama yoki zovur tarmoqlari egallagan, ya’ni chigit bo‘lgan chiqindi maydonlar ( $W_{ch}$ ) kiradi. Chiqindi maydonlarni ko‘lami asosan yer relyefiga va sug‘orish tarmoqlari konstruksiyasiga bog‘liq. Ochiq konstruksiyali sug‘orish tarmoqlarida yer relyefi ko‘rinishga qarab, bu maydon brutto maydonini 8-12% ni tashkil etishi kerak (katta qiymat noqulay yer relyef shart-sharoitlari uchun).

Loyihaviy netto maydon qiymati:

$$W_{net} = YFK \cdot W_{br}, \text{ ga}$$

bu yerda:  $YFK = 0,88-0,92$  yerdan foydalanish koeffitsienti qiymati.

Berilgan topshiriqqa binoan asosiy qishloq xo‘jalik ekinlarining netto qiymatlarini belgilaymiz:

$$W_i = \frac{W_{net} \cdot N_i}{N_{um}}, \text{ ga}$$

bu yerda:  $N_{um}$  – namunaviy maydondagi barcha ekin dalalari soni.

$N_i$  – alohida ekinlar bilan band bo‘lgan almashlab ekish dalasining soni.

$W_i$  – almashlab ekish maydonidagi alohida ekin maydonlari netto qiymati, ga.

Namunaviy maydonning ekinlar bo‘yicha yer fondi hisobini 1-jadvaldagি qaydnoma ko‘rinishida keltirish qulaydir.

1-jadval. Namunaviy maydonning ekinlar bo‘yicha yer fondi qaydnomasi

T/r	Qishloq xo‘jalik ekinlarining nomi	“Netto” maydoni, ga	% qiymati
1	G‘o‘za	$W_g$ ‘	$X_g$ ‘
2	Bug‘doy	$W_b$	$X_b$
	Jami:	$W_{net}$	100

### **3. Sug‘orish usuli va sug‘orish texnikasini tanlash**


Har qanday sug‘orish usuli va sug‘orish texnikasini tanlashda asosan quyidagi talablar qo‘yiladi:

- sug‘orish suvini tuproq faol qatlam ostiga sizilishiga, havoga bug‘lanishiga va tashlamalarga isrof bo‘lmasligiga erishish;
- tuproq donodorligini saqlash, tuproqni botqoqlanishiga yo‘l qo‘ymaslik, sug‘orishni to‘liq mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, sug‘orishda yuqori ish unumi va sifatiga erishish;
- qishloq xo‘jalik ekinlaridan yuqori va muntazam hosil olishga erishish.

Ma’lum bir sug‘orish maydonida sug‘orish usulini tanlashda iqlim, tuproq, yer relyefi, gidrologik gidrogeologik, biologik, xo‘jalik, suv-xo‘jalik, iqtisodiy va boshqa omillar hisobga olinadi. Buning uchun ushbu uslubiy qo‘llanmadagi 2-jadvaldan foydalanish mumkin.

Qishloq xo‘jalik ekinlari yoppasiga ekiladigan ekinlarga va qatorlab ekiladigan ekinlarga, bir yillik va ko‘p yillik ekinlarga farqlanib ularning har qaysisi o‘ziga mos sug‘orish usullarini talab qiladi:

- ko‘p yillik ekinlar uchun asosan tomchilatib, yer ustidan egatlab sug‘orish;
- yoppasiga ekiladigan ekinlar uchun esa yer ustidan taxtalab, bostirib (sholi), yomg‘irlatib, sizot suvlar sathini ko‘tarib (beda);
- qatorlab ekiladigan ekinlar uchun yer ustidan egat olib, tuproq ichidan namlatib, ba’zan yomg‘irlatib yoki purkab sug‘orish usullarini qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.



Egatning har 100 m ga suv shimalish miqdori, l/s

- yer ustidan sug'orish
- yomg'irlatib sug'orish
- tomchilatib, tuproq ichidan sug'orish

1-chizma. Sug'orish usullari va sug'orish jihozlari bo'yicha rayonlashtirish

2-jadval. Sug‘orish usullarini tanlash bo‘yicha tavsiyanoma

Sug‘orish suvlari	Tuproqni namlantrish	Havoni namlantrish	Tuproqda nam yig‘ish	Sho‘r yuvish	Tuproq yemirilishini oldini olish	O‘g‘it kiritish	Chiqindi suv bilan sug‘orish	namlanishini Begona O‘tarni	oldini olish
Yer ustidan	+	-	+	+	-	x	x	-	+
Yomg‘irlatib	+	+	x	-	x	x	x	+	+
Tuproq ichidan	+	-	+	-	+	+	+	-	-
Tomchilatib	+	-	x	-	+	+	-	-	-
Subirrigatsiya	+	-	+	-	+	-	-	-	-
Tuman hosil qilib	x	+	-	-	+	-	-	+	+

Eslatma: «+» - maqsadni amalga oshiradi;

«-» - maqsadni amalga oshira olmaydi;

«x» - maqsadni qisman amalga oshiradi.

3-jadval. Sug‘orish usullarini tanlash bo‘yicha tavsiyanoma

Sug‘orish usullari	Sho‘r tuproqlarda	Yengil qumoq tuproqlarda	O‘g‘ir tuproqlarda	Murakkab yer tuzilishida	Katta nishablikda	Sho‘r, sizot suv, yaqin joylashganda	Suv zaxirasi	yetishmaganda	Sho‘r suv bilan sug‘orishda	Kuchli shamolda
Yer ustidan	+	x	+	x	x	x	x	x	x	+
Yomg‘irlatib	-	+	x	+	+	+	+	+	-	+
Tuproq ichidan	-	x	x	x	+	-	+	-	-	+
Tomchilatib	-	x	+	+	+	-	+	-	-	+
Subirrigatsiya	-	x	+	-	-	-	-	-	-	+
Tuman hosil qilib	+	+	+	+	+	+	+	+	-	+

Eslatma: «+» - maqsad amalga oshadi;  
 «-» - maqsad amalga oshmaydi;  
 «x» - maqsad qisman amalga oshadi.

#### 4-jadval. Tuproqning suv o‘tkazuvchanlik darajasi

<b>Sinflar</b>	<b>Tuproqning suv o‘tkazuvchanli- gi</b>	<b>Tuproqning mexanik tarkibi</b>	<b>O‘rtacha hosil bo‘limgan suv o‘tkazuvchanli- k, sm.soat</b>	<b>100 m egatda o‘rtacha nisbiy suv shamilish sarfi, l/s</b>
A	Yuqori darajada	Qumli	8 dan yuqori	0,4 dan yuqori
B	Kuchaygan	Qumoq	8	0,2
V	O‘rtacha	Yengil soz tuproq	4,5	0,1
G	Susaygan	O‘rta soz tuproq	2,5	0,05
D	Sust	Og‘ir soz tuproq va gil	1,5 dan kichik	0,03 dan kichik

#### 5-jadval. Sug‘orish dalasining yer nishabi guruhlari

<b>Guruhsraq</b>	<b>Sug‘orish dalasining yer nishabligi</b>	<b>O‘rtacha nishablik</b>	<b>Nishablikning chegaralari</b>
1	Juda yuqori	0,04	0,03-0,05
2	Yuqori	0,02	0,015-0,03
3	O‘rtadan yuqori	0,01	0,007-0,015
4	O‘rta	0,005	0,003-0,007
5	Kichik	0,002	0,001-0,003
6	Nishabsiz yerlar	0,0005	0,001 dan kichik

Egatning har 100 m ga nisbiy suv shamilish miqdori qiymati talabaga berilgan topshiriq qiymatlaridan qabul qilinadi.

Sug‘orish dalasining yer nishablik guruhi va tuprog‘ining suv o‘tkazuvchanligi darajasini belgilashda 4 va 5-jadvallardan foydalanish mumkin.

6-jadval. Sug‘orish jihozini tanlash bo‘yicha tavsiyanoma

Suv berish jihozি	Shimilish tezligи, m/soat	Tuproq qathamining qaliligi, m	Qulay bo‘lgan nishablik qiymatи	Shartli yer tekislash ishlaringning haimи, m <sup>3</sup> /ga	Sizot suvarining yo‘l qo‘yil gan chuqurligi, chuchuk / sho‘r	Sizot suvarining sho‘rianganlik darajasi, g/l
1	2	3	4	5	6	7
<b>Ochiq sug‘orish tarmoqlarida</b>						
1.O‘zi ishlaydigan naychaisifonlar	15 gacha	0,8-1,5	0,001-0,004	0-700	3/5	3-5 gacha
2.Nishabsiz cheklarda egat olib suv berish	15 gacha	0,8-1,5		0-1200	3/5	3-5 gacha
3.Sug‘orish agregatlari (PPA-165)	15 gacha	0,8-1,5	0,0025 gacha	0-200	3/5	3-5 gacha
4.Ko‘chma egiluvchan va qattiq sug‘orish quvurlari	15 gacha	0,8-1,5	0,003-0,005	0-700	3/5	3-5 gacha
5.Avtomatlashtirilgan novlar	15 gacha	0,8-1,5	0,0005-0,003	0-700	3/5	3-5 gacha
<b>Yopiq sug‘orish tarmoqlarida</b>						
1. Ko‘chma egiluvchan va qattiq sug‘orish quvurlari	10 gacha	0,8-1,5	0,005-0,0075	0-300	3/5	3-5
2. Qattiq teshikli qo‘zg‘almas sug‘orish quvurlari	5 gacha	0,8-1,5	0,0075-0,05	0-200	3/5	3-5

7-jadval. Yer ustidan egatlab sug‘orishda tavsiya qilingan sug‘orish texnikasi elementlari

Tuproqning suv o‘tkazuvchanligi	Sinf	Egatning ko‘rsatkichi	Dalaning nishabligi					
			0,05-0,03	0,03-0,015	0,015-0,007	0,007-0,003	0,003-0,001	0,001 dan kichik
Yuqori darajada (qum)	A	uzunligi, m	50	80	110	180	200	150
		suv sarfi, l/s	0,22	0,35	0,5	0,8	0,9	0,7
Kuchaygan (qumloq)	B	uzunligi, m	80	110	140	220	250	200
		suv sarfi, l/s	0,18	0,34	0,3	0,48	0,55	0,45
O‘rtacha (yengil qumoq)	V	uzunligi, m	110	135	160	260	300	250
		suv sarfi, l/s	0,13	0,15	0,18	0,3	0,35	0,3
Susaygan (o‘rta va og‘ir qumoq)	G	uzunligi, m	135	160	185	300	350	300
		suv sarfi, l/s	0,08	0,09	0,11	0,18	0,2	0,18
Sust (gil)	D	uzunligi, m	150	180	210	350	400	350
		suv sarfi, l/s	0,05	0,06	0,08	0,12	0,15	0,12

Eslatma: egatlar orasidagi masofani quyidagicha olish tavsiya etiladi:

$i > 0,005$  bo‘lganda  $a=0,6$  m;       $i < 0,005$  bo‘lganda  $a=0,9$  m

Sug‘orish usuli va sug‘orish texnikasi, sug‘orish jihozи va sug‘orish tarmog‘i konstruksiyalari belgilangach, sug‘orish texnikasining elementlari qabul qilinadi. Yer ustidan sug‘orish usuli tanlangan bo‘lsa egatlab va yo‘laklab sug‘orish texnikasining elementlarini 7-jadvalga asosan qabul qilish mumkin.

Masalan:  $i_e=0,006$ , tuproq – o‘rta mexanik tarkibli holat uchun:

sug‘orish usuli	–yer ustidan;
sug‘orish texnikasi	– egatlab;
sug‘orish jihozи	– yumshoq sug‘orish quvuri;
sug‘orish tarmog‘i konstruksiyasi	– ochiq.

Misolda berilgan qiymatlarga ko‘ra sug‘orish texnikasining elementlari quyidagilarga teng qilib qabul qilinadi:

$$l_e = 300 \text{ m}; \quad q_e = 0,18 \text{ l/s}; \quad a_e = 0,9 \text{ m}.$$

#### 4. Sug‘orish tarmoqlarini rejada loyihalash.

Xo‘jalikda sug‘orish tarmoqlarini namunaviy maydon hududida joylashtirish “Xo‘jalik hududini tashkil etish tuzilmasi” asosida quyidagi talablarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi:

- a) qishloq xo‘jalik ekinlarini sug‘orish, sug‘oriladigan uchastkalarga ishlov berish bilan bog‘liq holda olib borilishi kerak, bu holat suvni tejash bilan birga yuqori hosil olishni ham ta’minlaydi;
- b) navbatdagи sug‘orish uchun kultivatsiyadan va egat olishdan iborat sug‘orishdan keyingi ishlov haydov traktori bilan bajariladi;
- v) traktorlar ishini ishchilar ishi bilan dalachilikda eng muqobil muddatlarda amalga oshirish uchun xo‘jalikda kompleks yoki maxsus traktor – dalachilik bo‘limlari tashkil etiladi;
- g) hamma ishlov beriladigan yerlar va boshqa qishloq xo‘jalik ekinzorlari va shunday brigadalarga biriktirib qo‘yiladi;
- d) suvdan eng muqobil foydalanish maqsadida xo‘jaliklararo sug‘orish tarmog‘i shunday tizimga ega bo‘lishi kerakki, bo‘lim uchastkasiga kelayotgan

suvdan qattiq nazorat o‘rnatgan holda suv iste’molchilari uyushmalari bilan tuzilgan shartnoma asosida rejali taqsimlanadigan bo‘ladi.

Xo‘jalik sharoiti va hududning meliorativ holatlari turlicha bo‘lishiga qarab, asosiy almashlab ekish maydonini bir necha almashlab ekish massiviga ajratish mumkin. Agar paxtachilik xo‘jaliklarida asosiy almashlab ekish maydonining tuproq-meliorativ holatlari bir xil bo‘lsa, uni maydonlari bir xil bo‘lgan almashlab ekish massivlariga bo‘linadi, ularning maydoni 250-300 gektargacha qabul qilinishi ruxsat etiladi.

Almashlab ekish massivi o‘lchamiga yana qishloq xo‘jalik ekinlarining sug‘orish usullari va suv berish tartibi, ularning tarkibi va agrotexnikasi ham ta’sir qiladi.

Respublikamizning paxtachilik hududlarida quyidagi paxta-bug‘doy, paxtabeda almashlab ekish tuzilmalari –5:5; 7:3; 6:3; 5:3 keng qo‘llanilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi va har bir viloyat uchun alamashlab ekish tuzilmasi berilgan. Ularni tanlash eng avvalo yerlarning meliorativ holatiga va tuproq tavsiyanomasiga asoslanadi. Birinchi tuzilma 5:5 (50% paxta, 50% bug‘doy) va 7:3 (70% paxta, 30% beda) - meliorativ holati qoniqarli; ikkinchi (6:3)- yerlarida qisman sho‘rlangan va uchunchisi (5:3) – meliorativ holati qoniqarsiz bo‘lgan yerlar uchun qabul qilinadi.

Agar xo‘jalikning yerlari bitta meliorativ tumanda joylashgan bo‘lsa, bu holda maydonlari bo‘yicha bir xil va bir-biridan kattaligi bo‘yicha farq qilmaydigan bir nechta parallel almashlab ekish maydonlariga mustaqil XIT dan har bir almashlab ekish maydoniga suv berish shartini bajarish zaruratidan kelib chiqishi mumkin, ya’ni yuqorida ko‘rib o‘tilgan shartga binoan aniqlangan almashlab ekish massivlarining o‘lchamlari tekshiriladi. Almashlab ekish dalasining o‘rtacha maydoni berilgan almashlab ekishning umumiy maydonini dalalar soniga bo‘lib hosil qilinadi. Agar xo‘jalikning yerlari yer osti suvlarining sathi va boshqa ko‘rsatkichlariga (tuproq turlari, ularning sho‘rlanishi) ko‘ra bir nechta meliorativ tumanlarga bo‘linsa, xo‘jalikda ham almashlab ekish tuzilmasi va maydoni bo‘yicha bir-biridan farqli bir

nechta almashlab ekish massivlari loyihalanishi mumkin. Relyef sharoitlari murakkab bo‘lib almashlab ekish dalalari maydoni jihatidan bir-biriga teng bo‘lmagan bir qancha sug‘orish uchastkalaridan tashkil topgan bo‘lsa, bitta almashlab ekish dalalari maydoniga farq 10-15 % atrofida bo‘lishiga yo‘l qo‘yilishi mumkin.

Xo‘jalik ichida yer tuzish asosiy masalalarini oldindan yechish natijasida sug‘orish tarmoqlarini to‘g‘ri joylashtirish uchun quyidagi zarur xo‘jalik o‘lchamlari aniqlanadi:

- a) asosiy qishloq xo‘jalik ekinzorlari va xo‘jalik markazi o‘lchamlari;
- b) almashlab ekish massivlari soni va almashlab ekish dalalarining o‘rtacha o‘lchamlari.

“Xo‘jalik hududini tashkil qilish tuzilmasi”da alohida ekinzorlarni rejali joylashtirish to‘g‘risidagi masalani yechishda quyidagilarga erishish lozim.

1. Xo‘jalik markazi har tomonlama qulay uzlucksiz ishlaydigan sug‘orish tarmoqlari va xo‘jaliklararo yo‘lga tutash qilib joylashtirilishi.
2. Bog‘, tokzorlar, tutzorlarga ajratilgan maydonlar xo‘jalik markazi (chegarasi) atrofiga joylashtirilishi.
3. Chorva uchun almashlab ekish maydonlari imkoniyat boricha xo‘jalik markazi va boshqa almashlab ekilmaydigan ekinzorlar bilan bir massivda joylashtirilishi.
4. Almashlab ekish massivlari chegaralari relyef sharoiti murakkab bo‘lmagan hollarda to‘g‘ri chiziqli bo‘lishi, almashlab ekish dalasining shakli to‘g‘ri to‘rburchak qilib loyihalanishi kerak.

XIT ning qulay ishlashiga uning planda qulay joylashishi, xo‘jalik hududi va mehnatning to‘g‘ri tashkil qilinishi, yer tuzilishi, tuproq va meliorativ sharoitlari, sug‘orish va suv berish usullari, xo‘jalik talablari bilan mos bo‘lgandagina erishiladi.

Xo‘jalik ichki tarmog‘i hamma qismlarning sug‘oriladigan maydonda va mehnatni tashkil qilish bilan bog‘lanishi shakllari quyidagi omillarga bog‘liq:

- mahalliy tabiiy sharoitlar;
- xo‘jalikning turi va ixtisoslanishi;
- almashlab ekish tuzilmasi va dalalarning bo‘linishi;

- ishchi kuchlarining va mexanizatsiyalashtirish qurilmalarining borligi hamda tashkil qilinishi;

- xo‘jaliklararo va boshqa taqsimlagichlarning joylanishi.

Xo‘jalik chegarasida loyihalanadigan kanallarni trassalash uchun asosiy ko‘rsatmalar QMvaQ va boshqa adabiyotlarda bayon qilingani kabi, ularning mohiyati shunga olib keladiki, sug‘orish tarmog‘i quyidagilarni ta’minlamog‘i kerak:

- suv iste’moli rejasiga muvofiq suv berish uchun suvni o‘z vaqtida yetkazib berish;

- FIK va YFK ning eng yuqori qiymatlariga erishish;

- hamma qishloq xo‘jalik mashinalarini yuqori unum bilan ishlatilishini ta’minlash;

- sug‘orishda yuqori ish unum dorligiga erishish;

- mehnat va hududni to‘g‘ri tashkil qilish;

- kanal va inshootlardan samarali foydalanish.

Shuning uchun sug‘orish tarmog‘ini planda joylashishi shunday bo‘lishi kerakki, bunda XAT dan suvni xo‘jalikka 1-3 joydan olinishiga, xo‘jalik markaziga suv alohida taqsimlagichdan berilishiga va XIT butun sonli suvdan foydalanish birligini ta’minlashiga erishish kerak. Bundan tashqari xo‘jalik ichki tarmog‘idagi suv o‘lhash inshootlari xo‘jalikka va fermer uchastkalariga beriladigan suvni o‘lhash imkoniyatini ta’minlashi; tuproq – gruntlar buzilishining oldini olishi; muvaqqat sug‘orish tarmog‘iga rejali suv berishni ta’minlashi; trassa joyining yer tuzilishini tuproq-meliorativ sharoitlari bilan bog‘lanishi, ya’ni kanallarning trassalari sug‘oriladigan maydonga suvning o‘zi oqishini ta’minlash uchun joyning eng baland nuqtalaridan o‘tishi; berilgan sharoitda eng kam uzunlikda va to‘g‘ri chiziqli bo‘lishi kerak.

Yer tuzilishida xo‘jalikda hududni va mehnatni tashkil qilishning hamda qabul qilingan sug‘orish va suv berish usullari uchun kanal trassalarini o‘tkazishning ayrim namunaviy tuzilmalarini keltiramiz. Shox ariq (ShA) trassalarining rejadagi o‘rnii muvaqqat ariqlar (MA) tuzilmasi bilan aniqlanadi. Muvaqqat tarmoqning bo‘ylama sug‘orish tuzilmasi (2 A - chizma) sug‘orish uchastkasining (SU) yuqori chegarasi


bo‘ylab loyihalanadi, ko‘ndalang tuzilmada (2 Б - chizma) esa joyning nishabligi bo‘yicha o‘tkaziladi.

Ko‘pincha relyef sharoitlari bo‘yicha suvdan foydalanish birligiga beriladigan suvni alohida o‘lchash talablari bo‘yicha ikki taraflama qilib loyihalanadi. Ularning trassalari suvdan foydalanish birligi maydoniga nisbatan baland nuqtalar bo‘yicha o‘tkaziladi.

Har xil sug‘orish usullarining qo‘llanishi ularga mos muvaqqat sug‘orish tarmog‘ini, sug‘orish uchastkasining o‘lcham va shakllarini talab qiladi, bu esa o‘z navbatida, xo‘jalik ichki SUV o‘tkazuvchi kanallarining rejada joylashishiga va konstruksiya tuzilishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Xo‘jalik ichki tarmoq kanal trassalari xo‘jalik talablarini e’tiborga olgan holda mavjud tabiiy sharoitlar (relyef, tuproq va boshqalar) uchun bir nechta variantlarda ishlab chiqiladi. Tarmoqning planda qulay joylashishi, mexanizmlarning unumli ishlatilishi mehnatni yaxshi tashkil qilinishi, suvdan rejali foydalanish imkonini beruvchi, agrotexnika talablarini qanoatlantiruvchi va tuproq yemirilishiga yo‘l qo‘ymaydigan variantlarni o‘zaro taqqoslash natijasida qabul qilinadi.

Bularga tarmoqning eng kam sarf xarajatida va SUV zaxiralaridan rejali foydalanilganda erishiladi.



2-chizma. Muvaqqat ariqlarni sug‘orish maydonida joylashish sxemasi:

A – bo‘ylama joylashish sxemasi; B – ko‘ndalang joylashish sxemasi;

1 – XIT, 2 – shox ariq, 3 – muvaqqat ariq, 4 - o‘q ariq, 5 – sug‘orish egati,  
6 – gorizontal, 7 – tashlama.

Talaba yuqoridagi talablarni to‘liq o‘rganib namunaviy maydon misolida xo‘jalik hududini tashkil etish, unda sug‘orish tarmoqlarini hosil qilish ishlarini bajaradi. Bajarilgan ishlar relyefda va namunaviy maydonda xo‘jalik hududini tashkil etish jadvalda (8-jadval) o‘z aksini topishi shart.

8-jadval. Namunaviy maydonda xo‘jalik hududini tashkil etish

№	XIT nomi	Maydon, ga					
		$\omega_{\text{yalp}}$	$\omega_{\text{br}}$	$\omega_{\text{net}}$	Shu jumladan		
					$\omega_{\text{g}^{\circ}}$	$\omega_{\text{bug}^{\circ}}$	$\omega_{\text{beda}}$
1							
Jami:							

## 5. Qishloq xo‘jalik ekinlarini sug‘orish rejimini qabul qilish va keltirilgan gidromodul grafigini chizish.

Umumiy suv berish me’yorlarini aniqlash tuproq paydo bo‘lishidagi mavjud sharoitlarning hamma kompleksini va ularning loyihalanadigan meliorativ tadbirlar bilan bog‘liq bo‘ladigan o‘zgarishlarini hisobga oluvchi maydonni tuproq-meliorativ rayonlashtirishga asoslangan.

Tuproq-meliorativ rayonlashtirishda hisobga olinuvchi asosiy ko‘rsatkichlar tuproq shakllanishining yo‘nalishi va rivojlanishini aniqlovchi iqlim, tuproqning litologik-geomorfologik tuzilishi, gidrogeologik va meliorativ-xo‘jalik sharoitlaridir. “UzGIP” MCHJ tavsiyasiga ko‘ra qabul qilingan tuproq-iqlim rayonlashtirilishiga ko‘ra Amudaryo va Sirdaryo havzalari maydoni kenglik (9-jadval) va balandlik-poyas (10-jadval) mintaqalarga bo‘lingan.

Iqlim mintaqalari chegarasida maydonning rayonlashtirilishi umumiy qabul qilingan gidrogeologik va tuproq-meliorativ shart-sharoitlar bo‘yicha hududlarga bo‘linadi.

9-jadval. Kenglik mintaqalarining belgilanishi

Kenglik mintaqalari	Belgilanishi
Shimoliy (Sh)	Sh- I
	Sh-II
Markaziy (M)	M-I
	M-II
Janubiy (J)	J-I
	J-II

10-jadval. Balandlik – poyas mintaqalariga bo‘linishi

Mintaqa, poyas		Tuproq shakllanishi (avtomorf qator)
Nomi	Belgilanishi	
Cho‘l	A	Cho‘lli
	A <sup>1</sup>	O‘tuvchi (qo‘ng‘ir tuproq poyasi)
Efemer dasht	B	Qo‘ng‘ir tuproqli – oq qo‘ng‘ir tuproqlar
	V	Qo‘ng‘ir tuproqli-tipik qo‘ng‘ir tuproqlar
Har xil o‘thi dasht	G	Qo‘ng‘ir tuproqli – to‘q qo‘ng‘ir tuproqlar

Grunt (sizot) suvlarining ta’minlanish sharoitlariga qarab:

«a» - sizot suvlarining singish sohasi – bunda sizot suvlari tuproq paydo bo‘lishiga ta’sir qilmaydi, uning chuqur joylashgan sharoitlarda oqib ketishi ta’milangan bo‘ladi;

«b» - sirtga tepish sohasi – tuproq paydo bo‘lishining asosiy sharoitlarini aniqlovchi sizot suvlarining hududga tashqaridan jadal kelishi va undan qiyin oqib ketadi, ular yer yuzasiga barqaror yaqin yotadi;

«v» - tarqalish sohasi – sizot suvlarining tashqaridan qiyin oqib kelishi va qiyin oqib chiqib ketishi bilan xususiyatlanib ularning yotish chuqurligi va tartibi mahalliy sharoitlarga bog‘liq holda o‘zgaruvchan bo‘ladi.

Sizot suvlarining minerallanish tabiatи va darajasi yordamida uning sathini pasaytirish va sho‘r yuvish me’yorlari hamda boshqa elementlar aniqlaniladi.

Tuproq-meliorativ rayonlashtirishning oxirgi taqsimot birligi bo‘lib, bir xil yoki har xil tuproq-genetik kompleksi ko‘rinishdagi tuproq ajratmasi xizmat qiladi.

Tuproq hosil qiluvchi jinsning litologik tarkibiga va sizot suvlarining yotish chuqurligi bilan bog‘liq gidromorfologiyasiga qarab tuproqlar 9 ta gidromodul rayonlarga guruhlashtiriladi, ularning tavsifi 11-jadvalda keltirilgan.

Talaba xo‘jaligini joylashgan o‘rni, (kenglik va balandlik mintaqalari bo‘yicha) sizot suvlarini ta’minlashi, tuproq hosil qiluvchi jinsning litologik tarkibi va sizot suvlarining yotish chuqurlik qiymatlari bo‘yicha gidromodulni belgilanishini qabul qiladi. Misol tariqasida Andijon viloyati Andijon tumani hududidagi sizot suvlar sathi 3-4 m da joylashgan qalin qumoq va gilli qatlam tuproq shiroitlarida g‘alla-paxta yetishtiruvchi fermer xo‘jaliq uchun “UzGIP” MChJ tavsiyasiga asosan M-II-B-B-IV gidromodul rayoni qabul qilingan va unga mos qishloq xo‘jalik ekinlariga suv berish tartibi I, II va III ilovalardan mos ravishda 12-jadvalga ko‘chirib yoziladi.

#### 11–jadval. Gidromodul rayonlarining tavsifi.

Gidromodul rayonlar	Tuproqlarning tavsifnomalari	Sizot suvlarining yotish chuqurligi, m
	Sizot suvlarining ta’sirisiz shakllanadigan avtomorf tuproqlar.	>3
I	Qum-shag‘alli yotqiziqlar ustidagi sayoz qumoqlashgan va qalin qumli qatlamlar.	
II	Qum-shag‘alli yotqiziqlar ustida joylashgan o‘rta qalin va qalin qumloqli qatlamlar.	
III	Qalin qumoq va gilli qatlamlar.	
	Sizot suvlarining juda kuchsiz ta’sirida shakllanadigan o‘tuvchi tuproqlar.	2-3
IV	Yengil qumoq va qumloqli qatlamlar.	
V	Qumoq va gilli qatlamlar.	
	Sizot suvlarining kuchsiz ta’sirida shakllanadigan gidromorf o‘tloqli tuproqlar.	1-2
VI	Yengil qumoq va qumloqli qatlamlar.	
VII	Qumoq va gilli qatlamlar.	
	Ortiqcha sizot suvlarining ta’sirida shakllanadigan botqoq-o‘tloqli tuproqlar.	0,5-1
VIII	Yengil qumoq va qumloqli qatlamlar.	
IX	Qumoq va gil qatlamlar.	

12-jadval. M-II-Б-В-IV gidromodul rayon uchun qishloq xo‘jalik ekinlarini sug‘orish rejimi jadvali

№	Q/x ekin nomi va %	Mavsumiy sug‘orish me’yori, $m^3/ga$	Sug‘orish davri	Ko‘rsat- kichlar	Sug‘orish me’yorining oylar bo‘yicha taqsimoti								
					III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
1	G‘o‘za $\alpha=60\%$	6000	21.05- 10.09	$\beta, \%$			4	22	36	31	7		
				$m, m^3/ga$			240	1320	2160	1860	420		
				$q_s, l/s ga$			0,28	0,51	0,81	0,69	0,16		
				$\bar{q}, l/s ga$			0,17	0,31	0,48	0,42	0,10		
2	Bug‘doy $\alpha=40\%$	3400	15.09- 20.05	$\beta, \%$	18	25	20				19		18
				$m, m^3/ga$	612	850	680				646		612
				$q_s, l/s ga$	0,23	0,33	0,25				0,25		0,23
				$\bar{q}, l/s ga$	0,09	0,13	0,10				0,10		0,09
JAMI				$\bar{q}_{max}, l/s ga$	0,09	0,13	0,27	0,31	0,48	0,42	0,20	0	0,09

12-jadvalda keltirilgan  $\beta, \%$  qishloq xo‘jalik ekin uchun belgilangan mavsumiy sug‘orish me’yorini ( $M$ ) vegetatsiya oylari bo‘yicha % dagi taqsimoti.  $m_i$  – oylik sug‘orish me’yori,  $m^3/ga$ :

$$m_i = \frac{M \cdot \beta}{100}, \text{ m}^3/\text{ga}$$

$q_s$  – oylik sug‘orish gidromodul ordinata qiymati,  $l/s \cdot ga$ .

$$q_s = \frac{m_i}{86,4 t_{oy}}, \text{ l/s} \cdot \text{ga};$$


bu yerda:  $t_{oy}$  – sug‘orish oyidagi sug‘orish kunlar soni, kun;

$\bar{q}$  - oylik keltirilgan gidromodul ordinata qiymati,  $l/s \cdot ga$ :

$$\bar{q} = \frac{\alpha_i}{100} q_s, \text{ l/s} \cdot \text{ga};$$

$\alpha_i$  – mazkur qishloq xo‘jalik ekinining sug‘orish maydonidagi % miqdori.

12-jadval natijasiga ko‘ra keltirilgan gidromodul ordinata qiymatlarining vegetatsiya davomida o‘zgarish grafigi chiziladi (3-chizma).



3-chizma. Keltirilgan gidromodul ordinatasi grafigi.

Bunda har bir ekin turi bo'yicha vegetatsiya davomida keltirilgan gidromodul qiymatlari ustma-ust qo'yib boriladi. Grafikdan eng katta ordinata qiymati ( $\bar{q}_{max}$ ) aniqlanadi. Bu qiymatni, keyingi hisoblarda qabul qilish uchun, davomati 15 kecha-kunduzdan kam bo'lmasligi kerak. Bu shart bajarilmagan taqdirda keltirilgan gidromodul qiymati to'g'rilanadi.

Keltirilgan gidromodul grafigidan istalgan vaqt uchun xo'jalikka suv berish miqdori aniqlaniladi va sug'orish tarmoqlarini loyihalashda, ulardagi normal, minimal suv sarf qiymatlari aniqlaniladi.

$$Q^{nor} = \omega_{net} \cdot \bar{q}_{max}, \frac{l}{s};$$

$$Q^{min} = \omega_{net} \cdot \bar{q}_{min}, \frac{l}{s};$$

$$q_{min} = 0.4 \cdot \bar{q}_{max}, \frac{l}{s};$$

bu yerda:

$\bar{q}_{max}$  - gidromodul grafigidagi eng katta gidromodul ordinata qiymati, l/s·ga;

$\omega_{net}$  - suv sarfi aniqlanadigan tarmoqni netto sug'orish maydoni, ga.

## **6. XIT kanallarini hisobiy suv sarfini aniqlash XIT ni va XIT tizimini FIK aniqlash.**

### **6.1. Sug‘orish tarmoqlarining netto suv sarfi qiymatlarini aniqlash va ularni qabul qilingan sug‘orish texnikasi unsurlari bilan bog‘lash.**

Xo‘jalikning yer fondi hisobiga asosan va keltirilgan gidromodul ordinata belgilanadigan suv sarfining qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$Q_{XIT}^{net} = \omega_{XIT}^{net} \cdot \bar{q}_{max}, \text{ l/s.}$$

bu yerda:  $\omega_{xo'j}^{net}$  - xo‘jalikning netto maydoni, ga;

$\bar{q}_{max}$  - keltirilgan gidromodul grafigidagi eng katta ordinata qiymati, l/s . ga.

Xo‘jalikdagi ekinlarning minimal suv iste’moli davri uchun suv sarfi qiymati:

$$Q_{XIT}^{min} = \omega_{XIT}^{net} \cdot \bar{q}_{min}, \text{ l/s.}$$

bu yerda:  $\bar{q}_{min} = 0,4 \cdot \bar{q}_{max}$ , l/s. ga.

Xo‘jalik ichki tarmoqlarining rejasini tuzishda har bir xo‘jalik ichki tarmog‘i (XIT) doimiy suv bilan ta’minlanadigan maydonga (bir yoki bir nechta) xizmat qilinishini hisobga olish kerak.

Doimiy suv bilan ta’minlanadigan maydonning suv sarfi shu maydon uchun tuzilgan gidromodul grafigi qiymati va netto maydoni bo‘yicha aniqlanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

XIT ning netto suv sarfi (agar uning maydonini doimiy suv bilan ta’minlanadigan maydon deb hisoblansa):

$$Q_{XIT}^{net} = \omega_{XIT}^{net} \cdot \bar{q}_{max}, \text{ l/s.}$$

bu yerda:  $\omega_{XIT}^{net}$  - XIT xizmat qiladigan maydon, ga;

$\bar{q}_{max}$  - XIT maydoni uchun tuzilgan gidromodul grafigidagi eng katta ordinata

qiymat, l/s, ga.

Ekinlarning eng kam suv iste'molidagi XIT ning suv sarfi:

$$Q_{XIT}^{min} = \omega_{XIT}^{net} \cdot \bar{q}_{min}, \text{ l/s.}$$

bu yerda:  $\bar{q}_{min} = 0,4 \cdot q_{max}$ , l/s. ga.

Agar XIT da ikki yoki undan ko'p doimiy suv bilan ta'minlanadigan maydon bo'lsa, bu holda XIT ning suv sarfi qiymati ular soniga bo'linadi.

Doimiy suv bilan ta'minlanadigan maydonga beriladigan suv sarflari aniqlangach, shox ariqlarning suv sarflarini belgilash mumkin. Ko'p hollarda shox ariqning suv sarfi doimiy suv bilan ta'minlanadigan maydon suv sarfiga teng qilib olinadi.

Shox ariqning suv sarfi  $Q_{sh.a}$  ushbu  $Q'_{sh.a} < Q_{sh.a} < (250...300) \text{ l/s}$  shartni bajarishi kerak.

Bu yerda  $Q'_{sha}$  – traktor bir kunda ishlov bera oladigan maydonni sug'orish uchun kerak bo'ladigan suv sarfi.

$$Q_{sha} = \frac{\omega_{kun} \cdot m}{86.4}, \text{ l/s}$$

$m$ - asosiy ekinga beriladigan eng katta sug'orish me'yori,  $\text{m}^3/\text{ga}$  ;

$$m = (800-1200) \text{ m}^3/\text{ga}.$$

$\omega_{kun}$  – traktor bir kunda ishlov bera oladigan maydon,  $\omega_{kun} = (10-15) \text{ ga}$ .

Almashlab ekish maydonida quyidagi ishlash tuzilmalari bo'lishi mumkin.

1.  $Q_{XIT}^{net} = Q_{sha}$  - bitta shox ariq almashlab ekish maydonida navbatma – navbat ishlaydi.

2.  $Q_{sha}^{net} = \frac{Q_{XIT}^{net}}{n'_{sha}}$  - bu yerda:  $n'_{sha} = (2-3)$  – bir vaqtda ishlaydigan shox ariqlar soni.

Shox ariqning suv sarfi aniq bo'lgach, bu suv sarf qiymatini yuqorida qabul qilingan sug'orish texnikasining unsurlarining suv sarfi bilan bog'laymiz.

Yer ustidan sug'orish usulida quyidagi sug'orish tuzilmalari uchraydi:

1. Shox ariq – sug'orish egati.

2. Shox ariq – muvaqqat ariq- sug‘orish egati.

3. Shox ariq – muvaqqat ariq – o‘q ariq - sug‘orish egati.

Shox ariq - sug‘orish egati sug‘orish tuzilmasida.

Shox ariqning sug‘orish takti:

$$N_{sha} = \frac{n_{s.e}}{n'_{s.e}} - \text{marotaba, yaxlit son bo‘lishi kerak;}$$

$$n'_{s.e} = \frac{l_{sha}}{a_e} - \text{dona} - \text{shox ariqdagi egatlarning umumiyl soni;}$$

$$n'_{s.e} = \frac{Q_{sha}}{q_e} - \text{dona} - \text{shox ariqdan bir vaqtida suv oladigan egatlarning umumiyl soni.}$$

Agar  $N_{sha}$  yaxlit son bo‘lmasa, uni yaxlitlab, shox ariqdan bir vaqtida suv oladigan egatlarning sonini  $n'_{s.e} = \frac{n_{s.e}}{N_{sha}}$  dona formuladan qayta aniqlab, har bir egatga beriladigan suv sarfi qiymatiga aniqlik kiritiladi:

$$q'_e = \frac{Q_{sha}}{n'_{s.e}}, \text{ l/s.}$$

Shox ariqning sug‘orish vaqtisi:

$$t_{sha} = t_{s.e} \cdot N_{sh.a}, \text{ soat}$$

$$t_{s.e} = \frac{0.0001 \cdot m \cdot l_e \cdot a_e}{3600 \cdot q'_e}, \text{ soat}$$

$t_{s.e}$  - egatning sug‘orish vaqtisi, soat;

$m$  - asosiy ekinga eng yuqori suv berish me’yori,  $\text{m}^3/\text{ga}$ ;

$l_e$  - egatning uzunligi, m;

$a$  - egatlar orasidagi masofa, m;

Shox ariq – muvaqqat ariq – sug‘orish egati tarzidagi sug‘orish tuzilmasi.

Bunday sug‘orish tuzilmalarida muvaqqat tarmoqlarga quyidagi talablar qo‘yiladi.

1. Muvaqqat ariqni sug‘orish muddati ikki kundan oshmasligi kerak:

$$t_{ma} = \frac{\omega_{m.a} \cdot m}{86.4 \cdot Q_{ma}} \leq 2 \text{ kun.}$$

bu yerda:  $\omega_{m.a}$  – muvaqqat ariqni sug‘orish maydoni, ga;

$Q_{m.a.}$  – muvaqqat ariqning suv sarfi, l/s.

2. Muvaqqat ariqdagi suv tezligi uning o‘zanini yuvilish tezligidan kichik bo‘lishi kerak;

$$V_{xaq} < V_{yu} = 0.95 \cdot V_j \cdot R^{1/3}, \text{m/s.}$$

3. Muvaqqat ariqning qurilish balandligi 0,3 m dan oshmasligi kerak (agar u ochiq tarmoq bo‘lsa).

4. Muvaqqat ariqning suv sarfi shox ariq suv sarfi bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lishi kerak:

$$Q_{ma} = \frac{Q_{sha}}{n_{ma}} > \frac{m \cdot \omega_{ma}}{86.4 \cdot t_{ma}}, \text{l/s}$$

$m$  – asosiy ekin uchun eng yuqori sug‘orish me’yori,  $m = 800-1200 \text{ m}^3/\text{ga}$

$\omega_{ma}$  – bir muvaqqat ariq sug‘oradigan maydon, ga.

$$\omega_{ma} = \frac{\omega_{SD}}{n_{ma}}, \text{ga}$$

$n_{m.a}$  – sug‘orish maydonidagi muvaqqat ariqlar soni.

Muvaqqat ariqning suv sarfi: ochiq tarmoqlar uchun

$Q_{ma} = 25-60 \text{ l/s}$ , yopiq tarmoqlar uchun ularning texnik tavsifiga asosan belgilanish mumkin.

Muvaqqat ariqning ish takti

$$M_{ma} = \frac{n_{s.e}}{n'_{s.e}} \text{ (yaxlit son bo‘lishi kerak).}$$

$n_{s.e} = \frac{l_{ma}}{a_e}$ , dona – muvaqqat ariqdagi egatlarning umumiy soni;

$n'_{s.e} = \frac{Q_{ma}}{q_e}$ , dona – muvaqqat ariqdan bir vaqtida suv oladigan egatlarning

umumiyl soni.

$M_{ma}$ -yaxlit son bo‘lmasa, uni yuqorida ko‘rsatilgandek yaxlitlab olinadi va  $n_{s.e}$  va  $q_e$  qayta aniqlanadi.

Muvaqqat ariqning ish vaqtisi  $t_{ma} = M_{ma} \cdot t_{s.e} \leq 48$  soat bo‘lishi shart.

Shox ariq, muvaqqat ariq, o‘q ariq, sug‘orish egati tarzidagi sug‘orish tuzilmasi.

Bu sug‘orish tuzilmasida muvaqqat ariq ikkinchi sug‘orish tuzilmasida keltirilgan talablarga javob berib, avvalo undan suv oladigan o‘q ariqlarning soni va suv sarfi aniqlanadi.

O‘q ariqlar soni  $n_{o'q} = \frac{B_{s.d.}}{l_e}$  dona yaxlit son bo‘lishi kerak.

bu yerda:  $B_{s.d.}$  – sug‘orish dalasining eni uzunligi, m;

$l_e$  – egatning uzunligi, m.

O‘q ariqning suv sarfi 30 l/s dan oshmasligi kerak:

$$Q_{o'q} = \frac{Q_{ma}}{n_{o'q}}, \text{ l/s}$$

Bitta o‘q ariqdan suv oladigan egatlarning umumiyl soni:

$$n_e = \frac{l_{o'q}}{a}$$

$l_{o'q}$  – o‘q ariqning uzunligi,  $l_{o'q} = (70-120)$  m:

$a$  – egatlar orasidagi masofa, m.

$$L_{s.d.} = \frac{L_{s.d.}}{n_{ma}}, \text{ m.}$$

$L_{s.d.}$  – sug‘orish dalasining bo‘yi uzunligi, m;

$n_{ma}$  – muvaqqat ariqlarning umumiyl soni.

O‘q ariqning ish takti:

$$K_{o'q} = \frac{n_e}{n'_e}$$

$n_e = \frac{L_{o'q}}{a_e}$  - o‘q ariqdagi egatlarning umumiyl soni, dona

$n'_e = \frac{Q_{o'q}}{q_e}$  - o‘q ariqdan bir vaqtida suv bilan ta’minlanadigan egatlarning soni,

dona.

O‘q ariq bilan muvaqqat ariqning suv sarflarining o‘zaro bog‘liqligi quyidagicha amalga oshiriladi:

$$Q'_{o'q} = n'_e \cdot q_e, \text{ l/s}$$

$Q_{o'q} = Q'_{o'q}$ , bo‘lishi shart, aks holda bu bog‘liqlik q<sub>e</sub> ga o‘zgartirish kiritish

bilan amalga oshiriladi. Muvaqqat ariqning ish takti  $M_{ma} = \frac{n_{o'q}}{n'_e}$  marta;

$n'_{o'q}$  – bir vaqtida suv bilan ta’minlanadigan o‘q ariqlar soni.

Bu holda muvaqqat ariqning ish vaqtini.

$$t_{m.a} = M_{m.a} \cdot K_{o'q} \cdot t_e < 48 \text{ soat.}$$

Suv sarflarini aniqlash hisoblarini jadval ko‘rinishida olib borish qulay. Buning uchun quyidagi 13-jadval tavsiya etiladi.

13-jadval. XIT suv sarflarini aniqlash jadvali

Doimiy suv bilan ta’minlang an maydon	Sug‘orish tarmog‘i ning nomi	Netto sug‘orish maydoni, ga			Hisobiy gidromodul qiymati 1/s.ga	Netto suv sarfi, l/s	
		Umum iy	Shu jumladan			Me’yoriy	Eng kam
			G‘o‘ za	Beda	Boshqa ekinlar		
1	2	3	4	5	6	7	8
							9

## 6.2 Sug‘orish tarmoqlarining hisobiy suv sarflarini aniqlash.

Har qanday sug‘orish tarmog‘i hisobiy qismlarga bo‘linadi. Hisobiy qism deganda sug‘orish tarmoqlarining gidravlik unsurlari, nishabligi va suv sarfi qiymatlari doimiy bo‘lgan sug‘orish tarmog‘ining oralig‘i tushuniladi.

Bu qismning hisobiy (brutto) suv sarfi quyidagiga teng:

$$Q^{br} = Q^{net} + S, \text{ l/s}$$

bu yerda:  $Q^{net}$  – hisobiy qismning netto suv sarfi, l/s;

$S$  – hisobiy qismda yo‘qoladigan suv isrofgarchiligining qiymati, l/s.

$\eta = \frac{Q^{net}}{Q^{br}}$  - nisbat hisobiy qismning foydali ish koefitsienti (FIK) deb ataladi.

$S$  va  $\eta$  larning qiymatlari sug‘orish tarmog‘i ko‘ndalang kesim yuzasining shakliga, uning qoplama materialiga bog‘liq. Har qanday hisobiy suv sarflarini aniqlashdan oldin har bir tarmoq ko‘ndalang kesim yuzasining shakli va qoplamasining materiali aniq bo‘lishi kerak. Ular esa o‘z navbatida yerning nishabligiga, tuprog‘ining suv o‘tkazuvchanligiga, qabul qilingan sug‘orish usullariga, sug‘orish maydonining meliorativ holatiga va qurilish materiallarining bor-yo‘qligiga bog‘liqdir. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda har bir loyihachi sug‘orish tarmoqlari ko‘ndalang kesim yuzasining shaklini va qoplama materialini mustaqil belgilaydi yoki ularni quyidagi jadvaldagagi tavsiyanomaga asosan qabul qilishi mumkin.

14-jadval. Sug‘orish tarmoqlari konstruksiyasining tavsiya jadvali

Nishablik		Tuproqning suv o‘tkazuvchanligi, sinflar bo‘yicha				
Guruhlari	qiymat	A	B	V	G	D
I, II	0,05-0,015	Q-B-B	Q-B-B	Q-B-B	Q-B-B	Q-B-B
III	0,015-0,007	Q-N-B	Q-N-B	Q-N-B	Q-B-B	Q-B-B
IV	0,007-0,003	Q-N-B	Q-N-B	Q-N-B	Q-N-T	Q-N-T
V	0,003-0,001	N-N-B	N-N-B	N-N-B	N-N-T	N-N-T
VI	0,001 dan kichik	N-B-B	N-N-B	N-N-B	T-T-T	T-T-T

*Eslatma: T – tuproq o‘zanli sug‘orish tarmog‘i; N – nov; Q – quvur; B – beton qoplamali sug‘orish tarmog‘i.*

Birinchi belgi shoh ariq uchun, ikkinchi belgi xo‘jalik ichki tarmog‘i uchun, uchinchi belgi xo‘jalik tarmog‘i uchun tavsiya etilgan.

#### 6.2.1. Tuproq o‘zanli sug‘orish tarmoqlarining hisobiy suv sarflarini aniqlash.

Brutto suv sarfi  $Q^{br} = Q^{net} + S$ , m<sup>3</sup>/s

$$S = \frac{\alpha \cdot \beta \cdot \sigma g^{net} \cdot l}{100}, \text{ m}^3/\text{s}$$

Bu yerda:  $\alpha$  - sug‘orish tarmog‘ining ishlash taktiga bog‘liq koeffitsient.

15-jadval.  $\alpha$  ning sug‘orish tarmog‘i ish taktiga bog‘liq qiymati.

Sug‘orish tarmog‘ining ishlash taktlari soni	1	2	3	4
$\alpha$	1	0,75	0,66	0,62

$\beta$  - sug‘orish tarmog‘ining ish vaqtiga bog‘liq koeffitsienti..

16-jadval.  $\beta$  ning sug‘orish tarmog‘i ish vaqtiga bog‘liq qiymati.

Sug‘orish tarmog‘ining ishlash taktlar soni	5	10	15	20	24
$\beta$	2,35	1,6	1,30	1,15	1,0

$\sigma$  - nisbiy suv isrofarchiligi qiymati; sug‘orish tarmog‘ining 1 km uzunligiga to‘g‘ri keladigan  $Q^{net}$  ga nisbatan % hisobidagi qiymat.

U quyidagi bog‘lanish yoki 17-jadval bo‘yicha qabul qilinishi mumkin:

$$\sigma = \frac{A}{Q^m} \% \text{ 1 km ga.}$$

bu yerda:  $Q$  – hisobiy qismdagi suv sarfining netto qiymati,  $\text{m}^3/\text{s}$ ;  $A$  va  $m$  – tuproqning suv o‘tkazuvchanligiga bog‘liq koeffitsientlar.

17-jadval. A va m larning qiymatlari

Tuproqning suv o‘tkazuvchanligi	$K_f$ , m/kun,	A.N.Kostyakov tavsiyanomasiga asosan		SANIIRI tavsiyanomasiga asosan	
		$A$	$m$	$A$	$m$
Kuchli - (qumoq, yengil soz tuproq)	2	3,4	0,5	2,85-3,5	0,5
O‘rta-(yengil soz tuproq)	0,5-2,0	1,9	0,4	1,87-2,3	0,5
Kam-(og‘ir soz tuproq, gil).	0,5	0,7	0,3	1,0-1,3	0,5

l – hisobiy qismning uzunligi, km.

Yuqoridagi bog‘lanishga asosan

1. Muvaqqat ariqning hisobiy suv sarfi.

$$Q_{ma}^{br} = Q_{ma}^{net} + S_{ma}, \text{ m}^3/\text{s}.$$

$$\eta_{ma} = \frac{Q_{ma}^{net}}{Q_{ma}^{br}}$$

2. Shoh ariqning hisobiy suv sarfi

$$Q_{sha}^{br} = Q_{sha}^{net} + S_{sha}, \text{ m}^3/\text{s}$$

$$Q_{sha}^{net} = n'_{ma} \cdot Q_{ma}^{br}, \text{ m}^3/\text{s}$$

$$\eta_{sha} = \frac{Q_{sha}^{net}}{Q_{sha}^{br}},$$

$n'_{ma}$  - shox ariqdan bir vaqtida suv oladigan muvaqqat ariqning soni.

### 6.3 Xo‘jalik ichki tarmog‘ining hisobiy suv sarfi.

Bu sug‘orish tarmog‘ining hisobiy suv sarfini aniqlashda undagi suv sarfini o‘zgarishini hisobga olish kerak. Chunki, ko‘p hollarda bu tarmoq doimiy suv bilan ta’minlayotgan ikki va undan ortiq maydonlarga xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, uning planda joylashishi bo‘yicha nishabliklari ham o‘zgarishi mumkin. Shuning uchun uning piketlarga bo‘lingan chiziqli tuzilmasi chizib olinsa, hisoblash va hisobiy qismlarni ajratish qulay bo‘ladi. Xo‘jalik ichki tarmog‘ining shartli chiziqli tuzilmasi 4-chizmada ko‘rsatilgan.

XITni keltirilgan chiziqli tuzilmasiga asosan XIT hisobiy qismlarga bo‘linadi:

1. Uchinchi hisobiy qism PK N<sub>2</sub> dan PK N<sub>3</sub> gacha

$$Q_{XIT(III)}^{br} = Q_{XIT(III)}^{net} + S_{III}, \text{ m}^3/\text{s}; Q_{XIT(III)}^{net} = Q_{sha}^{br}, \text{ m}^3/\text{s}; \eta_{XIT(III)} = \frac{Q_{XIT(III)}^{net}}{Q_{XIT(III)}^{br}};$$

2. Ikkinchi hisobiy qism PK N<sub>1</sub> dan PK N<sub>2</sub> gacha

$$Q_{XIT(II)}^{br} = Q_{XIT(II)}^{net} + S_{II}, \text{ m}^3/\text{s}; Q_{XIT(II)}^{net} = Q_{XIT(III)}^{br} + Q_{sha}^{br}, \text{ m}^3/\text{s}; \eta_{XIT(II)} = \frac{Q_{XIT(II)}^{net}}{Q_{XIT(II)}^{br}};$$

3. Birinchi hisobiy qism PK O dan PK N<sub>1</sub> gacha

$$Q_{XIT(I)}^{br} = Q_{XIT(I)}^{net} + S_I, \text{m}^3/\text{s}; Q_{XIT(I)}^{net} = Q_{XIT(II)}^{br} + Q_{sha}^{br}, \text{m}^3/\text{s}; \eta_{XIT(I)} = \frac{Q_{XIT(I)}^{net}}{Q_{XIT(I)}^{br}};$$

XIT ning me'yoriy suv sarfi uchun foydali ish koeffitsienti:


$$\eta_{XIT} = \eta_{XIT(I)} \cdot \eta_{XIT(II)} \cdot \eta_{XIT(III)}$$

Minimal suv sarfi uchun XITning hisobiy suv sarfi:

XIT ni minimal suv sarfi qiymati uchun aniqlaniladi.

XITning tezlashtirilgan suv sarfi uchun hisobiy suv qiymati:

$$Q_{XIT}^{tez} = K_{tez} \cdot Q_{XIT}^{br}, \text{m}^3/\text{s}$$



4-chizma. Xo'jalik ichki tarmog'ining shartli chiziqli tuzilmasi.

19-jadval. Tezlashtirilgan koeffitsient qiymatlari.

$Q, \text{m}^3/\text{s}$	<1	1 - 10	10 - 50	50 - 100
$K_{tez}$	1,20	1,15	1,1	1,05

Xo'jalik ichki sug'orish tarmoq tizimini foydali ish koeffitsienti:

a) normal suv sarfi uchun :

$$\eta_{XIT}^n = \eta_{XIT}^n \cdot \eta_{sha} \cdot \eta_{ma}$$

b) minimal suv sarfi uchun:

$$\eta_{XIT}^m = \eta_{XIT}^m \cdot \eta_{sha} \cdot \eta_{ma}$$

Beton qoplamlari, nov va quvurli sug'orish tarmoqlarining hisobiy suv saflari quyidagi ko'rinishda aniqlanadi:

$$Q^{br} = \frac{Q^{net}}{\eta}$$

Bu yerda:  $\eta$  - qabul qilingan jihozli sug'orish tarmoqlarining foydali ish koeffitsienti qiymatlari (20-jadval).

20-jadval. QMvaQ 2.06.03-97ga asosan  $\eta$  ning qiymati

Sug‘orish tarmog‘ining ko‘rinishi	Shox ariq uchun	Xo‘jalik ichki tarmog‘i uchun
Beton qoplamali	0,95	0,94
Nov	0,97	0,96
Quvur	0,99	0,98

Hisoblash tartibi esa, yuqorida keltirilganidek amalga oshiriladi.

Bajariladigan hisoblashlarning natijasini quyidagi jadvalga kiritamiz.

Sug‘orish tarmoqlarining hisobiy suv sarflarini quyidagicha yaxlitlab olinsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- a) Muvaqqat ariq uchun: 10; 20; 30; 40; 50; 60; 80; 100 l/s.
- b) Shox ariq uchun: 100; 120; 150; 200; 250; 300 l/s.
- v) XIT va XT uchun: 300; 350; 400; 500; 600; 700; 800; 1000; 1250; 1500; 1750; 2000; 2500; 3000 l/s.

21-jadval. Xo‘jalik ichki sug‘orish tarmoqlarining hisobiy suv sarflari,

Sug‘orish tarmog‘ining nomi	L, km	Q <sup>net</sup> , l/s	$\sigma$ , %, 1 km		S, l/s		Q <sup>br</sup> , l/s		$\eta$	
			normal	minimal	normal	minimal	normal	minimal	normal	minimal
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
Muvaqqat ariq										
Shox ariq										
XIT										
XT										

Misol tariqasida yopiq sug‘orish tizimida ishlaydigan fermer xo‘jaligi dalasidagi sug‘orish tarmog‘ini loyihalaymiz. Sug‘orish tarmog‘i-yopiq. Sug‘orish jahozi-yumshoq sug‘orish quvuri.

Sug‘orish texnikasi elementlari:

$$l_e = 110m, \quad q_e = 0,5 l/s. \quad a_e = 0,6m$$

Fermer xo‘jaligi ikkilamchi suvdan foydalanuvchi bo‘lgani uchun suv birlik maydoniga beriladigan suv navbat bilan taqsimlanadi. Suv birlik maydoni qiymati 290 ga tashkil etsin. Unda XIT ni suv sarfi

$$Q_{sb}^{net} = W_{sb} \cdot q_{max} = 290 \cdot 0,48 = 140 \text{ l/s}$$

bu yerda:  $q_{max}$  – fermer xo‘jaligi uchun aniqlanilgan keltirilgan gidromodul ordinatasining katta qismi l/s. ga  $q_{max} = 0,48 \text{ l/s.ga.}$

Suv birlik maydonida 10 ta shoh quvur mavjud bo‘lsa, ulardan bittasi fermer xo‘jaligi hududidadir, ular navbat bilan suv oladi.

Shoh quvurning suv sarfi

$$Q_{shq}^{net} = \frac{Q_{sb}^{net}}{n_{shq^1}} = \frac{140}{2} = 70 \text{ l/s}$$

Yumshoq sug‘orish quvurining suv sarfi

$$Q_{yum}^{net} = \frac{Q_{shq}^{net}}{n_{yum^1}} = \frac{70}{2} = 35 \text{ l/s}$$

bu yerda:  $n_{yum^1}$  - bir vaqtda ishlaydigan shox quvur va yumshoq quvurlarning soni.

Yumshoq sug‘orish quvurining uzunligi  $l_{yum} = 200m$  ekanligini hisobga olib, undagi egatlar sonini aniqlaymiz.

$$n_{egat} = \frac{L_{yum}}{a_e} = \frac{200}{0,6} = 333 \text{ dona}$$

Yumshoq sug‘orish quvurining bir vaqtda suv bilan ta’minlanadigan egatlar soni

$$n_{egat} = \frac{Q_{yum}^{net}}{q_e} = \frac{35}{0,5} = 70 \text{ dona}$$

Yumshoq sug‘orish quvurining ish taktini 5 ga teng qilib olsak unda:

$n_{egat} = 67$  ga teng bo‘lib, sug‘orish egatining suv sarfi:

$$q_{egat} = \frac{35}{67} = 0,52 \text{ l/s}$$

Sug‘orish tarmoqlarining hisobiy sarflari

Bizni maydonda sug‘orish tarmoqlari yumshoq va qattiq quvurlar bo‘lganligi uchun FIK qiymatlari 20-jadvalga asosan (quvur uchun  $\eta=0,98$  , yumshoq quvur uchun  $\eta=0,98$ ) qabul qilamiz.

Shunga asosan sug‘orish tarmoqlarining hisobiy suv sarfini belgilaymiz.

1.Yumshoq quvurning hisobiy suv sarfi.

$$Q_{yum}^{br} = \frac{Q_{yum}^{net}}{\eta} = \frac{35}{0,98} = 35,7 \text{ l/s}$$

2.Tarqatuvchi quvurning hisobiy suv sarfi.

$$Q_{tq}^{br} = \frac{Q^{net}}{\eta} = \frac{71,4}{0,98} = 73 \text{ l/s}$$

$$Q = n^I \cdot Q_{yum}^{br} = 2 \cdot 35,7 = 71,4 \text{ l/s}$$

Tarqatuvchi quvur uchun standart qiymat  $Q_{tq}^{br} = 75 \text{ l/s}$  suv sarfini qabul qilamiz.

Xo‘jalik ichki sug‘orish tarmog‘ining foydali ish koeffitsienti

$$\eta_{XIT} = \eta_{yum} \cdot \eta_{Tq} = 0,98 \cdot 0,98 = 0,96$$

## 7. Sug‘orish tarmog‘ini gidravlik hisobi.

Kanallarni gidravlik hisoblash quyidagi usullar bilan olib boriladi:

1. Tanlash yoki grafoanalitik usul;
2. V.F.Poyarkov lineykasi yordamida;
1. Grafoanalitik usuli

Ochiq o‘zanli tuproqdan o‘tgan kanallarni grafoanalitik usuli bilan hisoblash tartibi quyidagicha: ochiq trapetsiya shaklidagi kanal tubining eni, kanal qurishda ishlataladigan mexanizmlarning ishchi qismlariga va uning suv sarfiga bog‘liq holda standart miqdorda qabul qilinadi. Ular quyidagi miqdorlarda bo‘lishi mumkin:

Xo‘jalik ichki taqsimlagichi uchun:  $b = 0,5; 0,8; 1,0; 1,25; 1,5; 2,0m$

Xo‘jalik ichki va xo‘jalikalararo taqsimlagich uchun:

$b = 1,0; 1,25; 1,5; 2,0; 2,5; 3,0; 4,0; 5,0; 6,0; 7,0; 8,0; 9,0; 10,0m$

Muvaqqat ariq uchun:  $b = 0,3; 0,4; 0,5m$

Shoh ariqlar uchun:  $b = 0,5; 0,8; 1,0; 1,25; 1,5; 2,0m$

Undan tashqari  $b$  ni tanlashda kanalning yotiqlik va tik tekisliklarda mustahkamligini ta’minlash uchun qabul qilingan ko‘ndalang kesim o‘lchamlarining nisbati, ya’ni barqarorlik koeffitsienti  $\beta = \frac{b}{h}$  S.A.Girshkan tavsiyasi bo‘yicha quyidagi miqdorda tanlanishi kerak:

$$\beta = 3 \cdot \sqrt[4]{Q - m}$$

bu yerda:  $Q$  - kanaldagi me'yoriy suv sarfi, ;

$m$  - kanalning ichki qiyalik koeffitsienti.

Kanalning ichki va tashqi qiyalik koeffitsientlari kanalning suv sarfiga va o'zan tuprog'inining mexanik tarkibiga asoslanib qabul qilinadi (22-jadval).

22-jadval. Kanallardagi ichki va tashqi qiyalik koeffitsientlari

Gruntlar	Qazima kanallar		Ko'tarma kanallar	
	Suv chuqurligi, m		Suv sarfi $m^3/s$	
	1,0	1-2	0,5	0,5-2
Qumoq	1,5	1,5	1,25	1,5
Yengil qumoq	1,25	1,25	1,0	1,25
O'rtacha qumoq	1,0	1,0	1,0	1,0
Og'ir qumoq	1,0	1,0	1,0	1,0
Gil	1,0	1,0	1,0	1,0

Kanal tubining eni tanlangach, kanaldagi suv chuqurligi ( $h$ ) ga bir nechta qiymatlar berib ( $b$  da  $\beta$  ni qanoatlantiradigan) suv sarfi ( $K$ ) va suv tezligi ( $S$ ) tavsifnomalarini hisoblaymiz.


$$K = W \cdot C \cdot \sqrt{R} = W \cdot S, \text{ m}^3/\text{s}; \quad S = C \cdot \sqrt{R}, \text{ m/s}$$

Hisoblarni jadval shaklida olib borish qulay (23-jadval).

23-jadval. Kanallarning gidravlik hisobi qaydnomasi

$B, m$	$h, m$	$m$	$n$	$W, m^2$	$X, m$	$R, i$	$\sqrt{R}$	$C$	$S, m/c$	$K, m^3/c$	Eslatma
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12

